



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2024-yilning yanvar-oktabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 35 653,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* 107,7 % ni tashkil etdi.

yanvar-oktabr
mlrd so'm



yanvar-oktabr
FHI, %






■ mlrd so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (22 137,5 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (15 985,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-oktabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 34 529,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,8 % ni, tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda jami Sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (36,6 %), Jomboy tumani (8,6%), Urgut tumani (9,1%), hamda Samarqand (6,6 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (117,7%), Kattaqo'rg'on tumanida (115,1%) hamda Oqdaryo tumanida (110,5%) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2024-yil yanvar-oktabr oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatda 8,9 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2,1 % ga, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 29,7 % ga hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 14,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 221,9 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2023-yilning yanvar-oktabr oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 14,4 % (14,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 23,3 % (19,8 %) va quyi texnologiyali 61,8 % (61,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 198,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,2 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 20,2 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 37,7 % (2023-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr	2024-yil yanvar-oktabr	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	43,1	39,8	-3,3
Paxta tolasi, ming t.	39,9	36,9	- 3,0
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	20,1	22,2	2,1
Shag'al – ming t.	517,4	394,8	- 122,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	28,2	161,8	133,6
Tamaki – mln dona	8 494,7	8 927,2	432,5
Piva – ming litr	22 300,0	17 864,0	- 4 436,0

2024-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda tozalangan paxta yog'i mahsulotlari 22,2 ming tonna (2023-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 10,4 % ga ko'p) hamda 394,8 ming tonna shag'al (23,7 % kam) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-oktabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2 683 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 6,6 % ga ko'paygan.



2024-yil

2 683 dona

2024-yil

106,6 %

2023-yil

2 518 dona

2023-yil

77,4 %

2022-yil


3 253 dona

2022-yil

93,0 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-oktabr oylarida 628 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga kamaygan.



2024-yil

628 dona

2024-yil

90,4 %

2023-yil

695 dona

2023-yil

71,6 %

2022-yil


971 dona

2022-yil

125,6 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 102,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,2 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 88,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 278,0 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 91,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa, 198,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 387,7 mlrd so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 113,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,7 %, fizik hajm indeksi esa, 100,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 10 235,2 mlrd so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 148,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 424,0 mlrd so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 17,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,2 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 787,4 mlrd so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 103,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 011,4 mlrd so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 138,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 149,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 508,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 191,6 % ni, tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 122,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 482,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 124,4 % ni tashkil etgan..

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 111,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi 931,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 140,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 074,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 119,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 147,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 160,0 mlrd so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 81,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,2 %, fizik hajm indeksi 96,2 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 2 926,1 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 653,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr	2024-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	189 096,2	293 747,4	104 651,2
Issiqlik energiyasi, mln gkal	3 772,2	5 466,5	1 694,3


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 249,0 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr	2024-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	42 772,3	56 861,9	14 089,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	96 141,9	122 436,4	26 294,5
Plastmassa chiqindilari, tonna	2 369,0	2 762,8	393,8


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 624 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 124 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,0 %) Samarqand shahriga, 794 tasi (14,1 %) Urgut tumaniga, 611 tasi (10,9 %) Samarqand tumaniga, 423 tasi (7,5 %) Pastdarg'om tumaniga va 307 tasi (5,5 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

939 ta

2024-yil yanvar-oktabr

1095 ta

2023-yil yanvar-oktabr

1 450 ta

2022-yil yanvar-oktabr



Jami faoliyat yuritayotgan (1- noyabr holatiga)

5 624 ta


2024-yil

6 293 ta

2023-yil

8 680 ta


2022-yil





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 18 176,9 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,0 % ni tashkil etdi.

yanvar-oktabr
mlrd soʻm



yanvar-oktabr
ulushi, % da



■ mlrd soʻm ■ ulushi, %